



ASALARI ZAXRI VA UNING BO'G'IM KASALLIKLARIDAGI TA'SIRI

Maxamadxodjayeva M.A.

TDSI Asab

kasalliklari. Xalq tabobati kafedrasining asissenti

Ergasheva N.O.

TXKMRM

Xalq tabobati kursi raxbari dotsent, t.f.d.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10554255>

ARTICLE INFO

Received: 25th December 2023

Accepted: 30th December 2023

Online: 31th December 2023

KEY WORDS

*Apitoksin polipeptidlar,
mellitin, apamin, MCD-peptid,
proteaza ingibitorlari,
adolapin,tertiapin sekapin
minilin, kardiopep.*

ABSTRACT

Ushbu maqola bo'g'im kasalliklarini davolashda asalari zaxarining (apitoksin) shifo samarasi uni bo'g'imlarga va organizmga ta'sir samarasi yoritiladi. Asalari chaqtirib davolash boshqz tur davolash usullaridan afzalliklari ko'rsatiladi.

Asal ari zaxri apitoksin rangsiz quyuq konsitsiyali suyuqlik bo'lib o'tkir xidga va achchiq tamga egadir. Zaxarda o'rtacha 41 % quruq moddalar bo'lib, ular uglevod, vodorod, azot, oltingugurt, fosfor, magniy, kaliy va boshqalar. Suvda fiz p-da kislotalarda yaxshi eruvchan. Apitoksin tarkibiga: polipeptidlar, mellitin, apamin, MCD-peptid, proteaza ingibitorlari, adolapin,tertiapin va sekapin minilin, kardiopeplar kiradi.

Fermentlariga –gialuronidaza fosfoliraza A, nordon fosfataza, Alfa- glyukozidaza, fosfomipaza –B, aminlar va ferromonlardan iboratdir.

Asalari zaxari preparatlari bo'lishiga qaramay asalari chaqtirib davolash eng qulay va keng tarqalgan usul bo'lib Apitoksinoterapiya- davo samarasini yanada oshirish uchun refleksoterapiya usuli bilan birga qo'llash juda yaxshi natijalar ko'rsatadi. Ya'ni akupunktur nuqtalarga asalarini chaqtirish (Prirodko 1968, Sherban 1976, Ludyanskiy 1991y) Asalari nishini akupunktur nuqtaga chaqtirilgan akson-refleksi o'z ishini boshlaydi, bunda qonga geparin gistamin va serotonin moddasi ajraladi.

Ayni vaqtda xarakat tayanch apparati tizimi kasalliklarida apitoksinoterapiyani qo'llash kengayib, rivojlanib bormoqda. Kuzatuvlar asosida asalari boquvchilari orasida xarakat tayanch tizimi kasalliklari bilan og'rimas ekan.

DOA- muammolarini tibbiyotdagi eng actual muammolardan hisoblanadi. Bo'g'im kasalliklari bilan murojat qilganlarni 55%ini tashkil qiladi. DOA Davolashning asosiy maqsadi: bo'g'im funksiyasini maksimal saqlab qolish va tog'ay degeneratsiyasini bartaraf qilishdir.

Tekshiruv o'tkazilgan bemorlarda 2-20gacha zararlangan bo'g'im va akupunktur nuqtalarga kun aro asalari chaqtirilganda 1-2 kunlarida biologic proba o'tkaziladi. 3-kunidan davolash boshlanadi. Asal ari nishi 20 minut qoldiriladi. Bunda 10ta bemorda og'riq



simptomlari yoqoldi, ertalabki tortishishlar, mushaklardagi og'riqdan 14 ta bemorda bartaraf etildi. Faqat allergik reaksiyasi bor bemor bundan mustasno.

Revmatizm – bu biriktiruvchi to'qimaning yallig'lanish kasalligi bo'lib xarakter tayanchi, yurak qon tomir va barcha ichki a'zolarining zararlanishi bilan kichadi. Bu kasallik ayni yoshlarda uchraydi. Ayollar erkaklarga qaraganda 3 marta ko'proq kasallanadi. Hozirda asalari chaqtirib davolash, asalari maxsulotlari bilan davolash yaxshi natijalarni bermoqda.

Revmatik kasalliklar asal ari zaxari va asal ari maxsulotlari bilan davolash juda yaxshi natija beradi. Apitoksin kortikosteroidlar ta'siridan xam mukammalroq ta'sir ko'rsatadi. Sindrom „OTMENI“ bermaydi.

Revmatoid artrit kasalligi bilan kasallangan bemorlarda turli xil darajadagi depressiv holatlar kuzatilgan. Apitoksinoterapiya- fonida depressiv holatlar yo'qolgan va pasaygan.

Shunday qilib apitoksinoterapiya yaqqol yallig'lanishga qarshi effektga ega bo'lib og'riqni kamaytiradi, bo'g'imlarning funksional holatini yaxshilaydi, o'tkir laborator ko'rsatkichlarni pasaytiradi, bemorni jismoniy va ruxiy holatini yaxshilaydi. Apitoksinoterapiyada nojoya holatlar juda xam oz ya'ni nesteroid yallig'lanishiga qarshi preparatlardan 5 marta glyukokortikoidlarni nojoya ta'siridan esa 8 marta kam ekan.

Asalari zaxarining terapevtik ta'sirlarini tushuntirganimizda u inson organizmini himoya kuchlarini oshiradi, antirevmatik ta'siridan tashqari organizmda boshqa tip reaksiyalarni ham keltirib chiqarar ekan qondagi kortizon miqdorini oshirar ekan. Endorfinlar, timus xujayralarining va interferoning funksiyalarini oshirar ekan. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha artrit davolashda asalari zaxari tarkibidagi apamin peptidining ta'siri evaziga ro'y beradi deyishadi chunki uning yallig'lanishiga qarshi xususiyati gidrokortizonnikiga qaraganda 1000 marta kuchliroqdir. Molekulyar og'irligi kichik bo'lgani uchun gimotoentefalik to'siqdan yaxshi o'ta oladi. Asalari zaxaridagi neptidlarninig og'riq qoldiruvchi effekti naekotik analgetiklardan 10-50 marta kuchliroqdir. Bulardan tashqari apiroksin kapillar va xujayra otkazuvchanligini oshiradi. Qonni suyultirish hususiyati bo'yicha girurindanda faol hisoblanadi.

Asalari zaharining revmatoid artritni- bo'g'im revmatizmini davolashdagi samarasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu ta'sir samarasini gipotalamo- gipofizar buyrak usti bezi tizimining faollanishi hisobiga bo'ladi deb hisoblanadi. Ya'ni shuni hisobga olish kerakki MNS tomonidan endorfinlarni miqdori ortib apiotsimon ta'sir etib og'riqni pasaytiradi. (Krellov 2004). Bulardan tashqari bo'g'imdagi revmatik kasalliklarni apiterapiya bilan davolaganda kasallikni simptomatiikasi yoqolibgina qolmay boshqa shifobaxsh samaralari yuzaga chiqib kasallik patogenezigga ta'sir ko'rsatib uni tubdan o'zgartiradi. Bunday bemorlarda bo'g'imlardagi xarakter qayta tiklanadi, morfologik holati yaxshilanadi. Bo'g'im xaltasida va zararlangan to'qimalarda reparatsiya jarayonlari sodir bo'ladi.

Osteoartroz kasalliklarida bo'g'imdagi tog'ay to'qimasi yemiriladi buning natijasida bo'g'imni mexanik ta'sirlarga adaptatsiyasi buziladi. Bo'g'imni normal funksiyasi uchun bo'g'imlar orasidagi synovial suyuqlik muxim axamiyatga egadir. Bu suyuqlikning tarkibida ko'p miqdorda gialuron kislotasi bo'lib uning molekulyar og'irligi juda yuqori shuning uchun juda qovushqoq bo'lib bo'g'imni yuqori xarakatchanligini ta'minlaydi. Osteoartrozda ana shu gialuron kislotasining depolimerizatsiyasi kuzatiladi.



Parchalangan gialuron kislotasi suyuqlikni bog'lay olmaydi, buning natijasida bo'g'imdagi tog'ay to'qima suyuqlikni yutadi va shishadi. Tog'ay to'qima xiralashadi va quriydi, elastikligi va mustaxkamligini yo'qotadi. Keyinchalik tolalar yemirilib yaralar hosil bo'ladi. Suyak to'qima yuzasidagi tog'ay to'qima yo'qoladi yoki mayda-mayda fragmentlarga bo'linib ketadi.

Yuqorida aytib o'tilgan jarayonlarni bartaraf qilish uchun bo'g'imdagi gialuron kislotasini miqdorini sifatini meyorga solish kerak. Ayni shu jarayonni asalari zaxarida ko'rishimiz mumkin. Asalari chaqtirib davolaganimizda qondagi kartikosteroidlarning miqdori keskin ko'tariladi va gapotalamo-gipofizar buyrak usti bezi sistemasining faollanish mexanizmi ishga tushadi va bo'g'imdagi funksional xolatining tiklanishi, sinovial suyuqlikning-gialuron kislotaning repolimerizatsiyasini amalga oshishini ta'minlab beradi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki zararlangan bo'g'imni asalari chaqtirib davolash osteoartroz va revmatoid artrit kasalliklarini davolashda bazis terapiya deb qabul qilish mumkin.

References:

1. Апитоксинотерапија А.Е. Хомутов К.А. Пурсанов О.В. Лушникова Д.С. Малиновский.
2. Пчелиный яд как продукт пчеловодство Артемов. Н.М
3. Власова. И. В Апитерапия в лечении ревматоидного артрита: Сборник научно-исследовательских работ по пчеловодству и апитерапии 2017-с 115-121
4. Власова. И. В. Апитерапия как альтернативный метод лечения анкилозирующего спондилита: Апитерапия сегодня. материалы XVIII Всероссийской научной конференции-2016 - С 54-59
5. Галкина. Д. Д. Лыткина. А. П Пчелиный яд.его свойства и применение: Научные труды студентов Ижевской ГСХА Электронное издание отв. за выпуск. Н. М Итешина, Ижевск, 2020-С 862-820
6. Крылов. В Апитерапия сегодня Пчеловодство-2013 5 С 7-13
7. Крылов. В. Н Абогессименгане Б Пчелиный яд в апитерапии Пчеловодство-2014 6 С 60-61
8. Маннонов. А. М Полухин. В. В , Карпин. В. А. Апитерапия как метод восстановительного лечения болезней спорно-двигательного аппарата. Актуальные проблемы современной науки-2016 9 -С. 36.